

Date: 19<sup>th</sup> September-2025



**HUDUDLARNING INNOVATSION TARAQQIYOT SHAROITIDA BARQAROR  
RIVOJLANISHINI TA'MINLASH MASALALARI  
ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ В  
УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ  
ISSUES OF ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF REGIONS IN THE  
CONTEXT OF INNOVATIVE DEVELOPMENT**

**Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich**

Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

[t.t.xojiyev@buxdu.uz](mailto:t.t.xojiyev@buxdu.uz)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada hududlarning innovatsion taraqqiyot sharoitida barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalari ko'rib chiqiladi. Innovatsion salohiyatni oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va investitsiya muhitini yaxshilash orqali hududiy rivojlanishda ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'llari yorililadi. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida O'zbekiston sharoitiga mos ilmiy-amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, hududiy rivojlanish, barqarorlik, texnologiya, investitsiya, iqtisodiy siyosat.

Bugungi globallashuv va tezkor innovatsion taraqqiyot davrida hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini to'liq ishga solish, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Hududiy rivojlanishning barqarorligi nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki ekologik muvozanat va aholining ijtimoiy farovonligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois innovatsion yondashuv asosida barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kunning eng muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biridir. Bunda hududlarning tabiiy va iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanish, investitsion muhitni yaxshilash, yangi ish o'rinalarini yaratish, shuningdek, xorijiy ilg'or tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida ham 2030-yilgacha mo'ljallangan strategik rivojlanish hujjatlarida hududiy barqaror rivojlanishni ta'minlash, innovatsion iqtisodiyotga o'tish, hududlararo tafovutlarni kamaytirish hamda aholining turmush sifatini oshirish asosiy ustuvor yo'naliш sifatida belgilangan. Shu bilan birga, hududlarning innovatsion salohiyatini oshirish, mahalliy boshqaruв tizimini modernizatsiya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari ham alohida e'tibor talab qilmoqda [1]

**Adabiyotlar sharhi**

Barqaror rivojlanish va hududlarning innovatsion taraqqiyoti masalalari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda keng ko'lamlı tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular iqtisodiy o'sishning

Date: 19<sup>th</sup> September-2025



yangi omillari, ijtimoiy infratuzilmaning takomillashuvi va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yondashuvlar bilan boyitilgan. Xususan, xorijiy olimlar hududiy innovatsion tizimlarning shakllanishi va ularning raqobatbardoshlikka ta'siri haqida turli nazariy konsepsiyalarni ilgari surgan bo'lsalar, mahalliy tadqiqotchilar O'zbekistonda hududiy rivojlanishni ta'minlashda davlat siyosati, milliy strategiyalar va "O'zbekiston – 2030" konsepsiysi doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilib kelmoqdalar. Ushbu ilmiy manbalar hududlarning innovatsion rivojlanishi sharoitida barqarorlikni ta'minlash bo'yicha nazariy va amaliy asoslarni yoritib berishi bilan birga, tadqiqotning dolzarbliji va amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Zamonaviy innovatsion iqtisodiyot nazariyasining asoschilaridan biri Jozef Shumpeter o'zining "The Theory of Economic Development" (1934) asarida iqtisodiy rivojlanish jarayonini oddiy kapital to'planishi emas, balki innovatsiyalarni joriy etish orqali izohlaydi. Shumpeterning "ijodiy vayronkorlik" konsepsiysi bo'yicha yangi texnologiyalar, mahsulotlar va ishlab chiqarish usullari eski tizimlarni siqib chiqaradi va shu orqali iqtisodiyotda dinamik o'sishga olib keladi. Bu nazariya hududiy rivojlanishning innovatsion modelini shakllantirishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [2].

Garvard universiteti professori, raqobat ustunligi nazariyasini muallifi Maykl Porter "The Competitive Advantage of Nations" (1990) asarida u mamlakatlar va hududlarning iqtisodiy qudrati resurslarga emas, balki innovatsiyalar orqali shakllanadigan raqobatbardoshlikka bog'liqligini asoslab bergen. Uning "olmos modeli"da ishlab chiqarish omillari, ichki talab, raqobatchilar va qo'llab-quvvatlovchi tarmoqlarning o'zaro uyg'unligi hududiy barqaror rivojlanishga xizmat qilishi ko'rsatiladi. Porter g'oyalari innovatsion siyosatni hududiy rivojlanish strategiyalari bilan integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi [3].

Daniyalik olim, "milliy innovatsion tizim" nazariyasining asoschilaridan biri Bengt-Åke Lundvall innovatsiyalarni faqat ilmiy-texnik yangilik sifatida emas, balki bilim almashuvi va o'zaro hamkorlik natijasi sifatida ko'radi. "National Systems of Innovation" (1992) asarida Lundvall innovatsiyalar davlat, universitet, tadqiqot markazlari va biznes o'rtasidagi faol aloqalar natijasida yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Bu yondashuv hududiy rivojlanishda ijtimoiy kapital va bilim iqtisodiyotining ahamiyatini ohib beradi [4].

Britaniyalik iqtisodchi Kristofer Freeman texnologik o'zgarishlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni chuqr tadqiq qilgan. Uning "The Economics of Industrial Innovation" (2002) asarida innovatsion faoliyat sanoat modernizatsiyasining bosh omili sifatida talqin etiladi. Freeman ilmiy-texnologik siyosatni hududiy va milliy darajada uyg'unlashtirish orqali barqaror rivojlanish imkoniyatlari kengayishini ta'kidlaydi. U, shuningdek, innovatsion siyosatni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish g'oyasini ilgari suradi [5].

Iqtisodchi olim, "National Innovation Systems: A Comparative Analysis" (1993) asari muallifi Richard Nelson milliy innovatsion tizimlarning samaradorligini taqqoslab, iqtisodiy rivojlanishda ilmiy-texnik salohiyatning hal qiluvchi rolini asoslab bergen. Nelson innovatsiyalarni hududiy rivojlanish bilan bevosita bog'lab, davlat siyosatining

Date: 19<sup>th</sup> September-2025

ilmiy-texnologik rivojlanishga yo'naltirilishi barqarorlikni ta'minlashda muhim omil ekanini ko'rsatadi [6].

Amerikalik iqtisodchi Jeffrey Sachs BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini ishlab chiqishda faol ishtirok etgan. Uning "The Age of Sustainable Development" (2015) asarida iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik barqarorlikning o'zaro uyg'unligi asoslab berilgan. Sachsga ko'ra, innovatsiyalar yashil iqtisodiyot, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Bu yondashuv hududlarning barqaror rivojlanishini global darajadagi konsepsiylar bilan bog'lash imkonini beradi [7].

Janubiy Koreyada 1970–1980-yillarda amalga oshirilgan "Saemaul Undong" ("Yangi qishloq harakati") dasturi qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilib, hududlararo farqlarni sezilarli darajada kamaytirdi [8].

Xitoyda "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi nafaqat iqtisodiy, balki global siyosiya va xavfsizlik sohalarida ham ustunlik berishga qaratilgan. Shu bilan birga, tashabbusning muvaffaqiyati ko'plab tashqi va ichki omillarga bog'liq. [9].

Mamlakatimizda so'nggi yillarda hududlarning innovatsion taraqqiyoti va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan qator islohotlarni amalga oshirildi. Jumladan, normativ-huquqiy asoslar yaratildi, "O'zbekiston–2030" strategiyasi, Prezidentimiz farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida hududlarni innovatsion rivojlantirish, ilm-fan va texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Innovatsion infratuzilma shakllantirildi. Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilib, hududlarda texnoparklar, biznes-inkubatorlar va innovatsion klasterlar barpo qilinmoqda. Jumladan, Yashnobod texnoparki, IT-parklar va qishloq xo'jaligi innovatsion markazlari hududiy rivojlanishda muhim rol o'yamoqda. Investitsion muhit yaxshilanib, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlarni jalg qilish uchun "erkin iqtisodiy zonalar" (Navoi, Jizzax, Angren, Buxoro va boshqalar) tashkil etilib, ularda zamонави innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Inson kapitaliga e'tibor kuchaydi. Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar kengaytirilib, "Yangi O'zbekiston universiteti", Turin politexnika universiteti, IT-mutaxassislarini tayyorlash markazlari kabi muassasalar faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, El-yurt Umidi jamg'armasi orqali yosh olimlar xorijiy tajriba asosida malaka oshirmoqda. Yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik yo'nalishida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan loyihamalar (quyosh va shamol elektr stansiyalari, barqaror qishloq xo'jaligi tizimlari) jadal rivojlanmoqda.

Shunga qaramay, amalga oshirilgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda, hududlararo tafovutlarni kamaytirish maqsadida innovatsion infratuzilma asosan poytaxt va yirik shaharlarda joylashganligini inobatga olgan holda, qishloq joylari va chekka tumanlarda texnoparklar, ilmiy markazlar va startaplarni qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish, mahalliy innovatsion ekotizimni rivojlantirish uchun universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat korxonalari o'rtaida "ilm–ta'lim–ishlab chiqarish" kooperatsiyasini kuchaytirish, xalqaro tajribani joriy etish. Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti va

Date: 19<sup>th</sup> September-2025

Yevropa Ittifoqi tajribasi asosida hududiy innovatsion siyosatni ishlab chiqish, xalqaro grant va loyihalarda faol ishtirok etish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion moliyalashtirish tizimini kengaytirish bo'yicha Startap va texnologik loyihalarni moliyalashtirish uchun venchur kapital, crowdfunding va grant tizimlarini rivojlantirish, yashil innovatsiyalarni keng joriy etish, ya'ni hududiy rivojlanishda ekologik muvozanatni ta'minlash uchun qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishslash, ekologik toza transport va "aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, inson kapitalini rivojlantirish maqsadida hududlarda yoshlarni innovatsion faoliyatga jalb qilish, IT va texnologiya sohalarida keng ko'lamli ta'lif dasturlarini tashkil etish, mahalliy olim va tadqiqotchilarni rag'batlantirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda hududlarning innovatsion taraqqiyotini ta'minlash yo'lida muhim qadamlar qo'yilgan bo'lsa-da, kelgusida hududiy tenglik, mahalliy innovatsion tizimlarni rivojlantirish va yashil iqtisodiyotga o'tish ustuvor yo'nalishlar sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-161-sون Farmoni, 2023-yil.
2. Schumpeter, J. A. (1934). The theory of economic development. Cambridge, MA: Harvard University Press. 255 b.
3. Porter, M. E. (1990). The competitive advantage of nations. New York: Free Press. 855 b.
4. Lundvall, B. Å. (1992). National systems of innovation: Towards a theory of innovation and interactive learning. London: Pinter. 342 b.
5. Freeman, C. (2002). The economics of industrial innovation. London: Pinter. 470 b.
6. Nelson, R. (1993). National innovation systems: A comparative analysis. Oxford: Oxford University Press. 560 b.
7. Sachs, J. D. (2015). The age of sustainable development. New York: Columbia University Press. 44.b.
8. Do Hyun Han va Casper Hendrik Claassen "Saemaul Undong, Republic of Korea (1970–1979)" Effective Cooperation.8 b.
9. Michael Clarke . The Belt and Road Initiative: China's New Grand Strategy? 14 b.
10. Hojiyev T. T. "Hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlashda infratuzilmani modernizatsiya qilish muammolari" Raqamli iqtisodiyot ilmiy electron jurnali, 10-son